

2021- yil mart

## XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI



7

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 6- sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-812-son farmonida 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

2020/2021- o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

2021- yil mart


**Kasb-hunar maktablarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshida)**



*Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi*

2021- yil mart


**Kasb-hunar maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishida (2020/2021- o'quv yili boshida)**



2020/2021- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 4,3 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Urganch shahrida va Xonqa tumanida – 0,5 ming nafar o'quvchiga to'g'ri kelgan.

**Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi**

**Kasb-hunar maktablari o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi  
(2020/2021- o'quv yili boshida)**



## 2021- yil mart

2020/2021- o'quv yili boshiga kasb-hunar maktablarida jami o'qituvchilar soni 362 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Shundan eng ko'p o'qituvchi xodimlar Xonqa tumaniga 57 nafar (15,7% i) to'g'ri keladi.


### Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



## 2021- yil mart


Xorazm viloyati bo'yicha kasb-hunar maktablarida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida qayd etilib, bitta o'qituvchiga o'rtacha 26 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Hazorasp tumanida esa eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 8 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

### Kollejlarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshida)



*Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi*

**Kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishida (2020/2021- o'quv yili boshida)**




Xorazm viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshida 13 ta kollejlarda 4,2 ming kishi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Xiva shahrida – 2,1 ming kishiga to'g'ri kelgan.



**Kollejlar o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi  
(2020/2021- o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)**

Xorazm viloyati	270
Urganch sh.	30
Xiva sh.	160
Qo'shro'pir	7
Hazorasp	32
Tuproqqal'a	10
Xonqa	10
Yangibozor	21

## Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)



2020/2021- o'quv yili boshiga Xorazm viloyati bo'yicha jami kollejlarda 270 nafar o'qituvchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Xorazm viloyati bo'yicha kollejlarda bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 16 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Xonqa tumanida qayd etilib, bitta o'qituvchiga o'rtacha 62 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Tuproqqal'a, Qo'shko'pir tumanlarida eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

**Texnikumlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda  
(2020/2021- o'quv yili boshida)**

Urganch sh.

3

1

Bog'ot

Xiva sh.

2

3

Urganch t.

**Texnikumlarda ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha  
hududlar kesimida taqsimlanishi, % da  
(2020/2021- o'quv yili boshida)**

66,8

ayollar

33,2

erkaklar

2020/2021- o'quv yili boshida Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan texnikumlarda jami tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2,4 ming nafarni tashkil etib, ulardan 66,8 % ni ayollar, 33,2 % ni erkaklar tashkil etdi.

**Akademik litseylar o'quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshiga)**

	Tashkilotlar soni	Jami o'quvchilar soni	Ulardan:	
			qizlar	o'g'il bolalar
Xorazm viloyati	5	2 381	999	1 382
Urganch sh.	5	2 381	999	1 382

Xorazm viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshiga 5 ta akademik litseylarda 2,4 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, akademik litseylar o'quvchilari orasida qizlarning ulushi 42,0 %, o'g'il bolalar 58,0 % ni tashkil etdi.

**Ijtimoiy soha va statistikasi bo'limi**  
**Tel.: (62) 224-65-21**

**Xorazm viloyati**  
**statistika boshqarmasi**